Talabalar va yosh olimlar uchun yana bir yozgi matematika maktabi!

O’zR FA Matematika instituti olimlari tashabbusi bilan talabalar va yosh olimlar uchun 2020-yilning 16-iyulidan haftaning seshanba (soat 11:00), payshanba (soat 11:00) va shanba kunlari (soat 08:00) da "O’yinlar nazariyasiga kirish" mavzusida Yozgi matematika maktabi onlayn darslari tashkil etiladi.

Ma’ruzachilar: akademik Abdulla A’zamov, professor G’ofurjon Ibragimov va professor Baxromjon Samatov.

Yozgi matematika maktabi onlayn darslarining ZOOM manzili e’lon qilinadi.